



MAQOM SAN’ATI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI RAVNAQI

Muallif: Ramazonova O’g'iloy Xolmurodovna¹

Affilyatsiya: Buxoro davlat universiteti. Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi katta o'qituvchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14381767>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maqom san’ati va uning bugungi kundagi ravnaqi, uni o’rganish va yosh ijrochilarga o’rgatishga doir bo’lgan masalalar va bu borada foydali maslahatlar berilgan. Ushbu maqola maqom san’atiga qiziquvchi yoshlar uchun umumiy ma'lumotlar beradi hamda ularning maqom haqidagi tasavvurlarini boyitadi

Kalit so’zlar: Maqom, milliy san’at, musiqa, Shashmaqom, maqom markazi, madaniy meros, milliy maqom, qadimiy tarix, teran, falsafiy ildizlar.

O’zbek milliy musiqa merosi ko’hna va ulug’vor bo’lib, uning ildizi juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Shuning uchun ham nihoyatda boy va o’zining rang-barang ko’rinishlarga ega bo’lgan mazkur musiqiy meros dunyo musiqa madaniyatida o’zining munosib o’rni borligi allaqachon o’z isbotini topgan. Ana shu milliy madaniy meros xalqimizning ajralmas, o’zligini anglatuvchi qadriyat sifatida aholining ijtimoiy hayot ijod sarchashmalari asosida yuzaga kelganligi bilan nihoyatda ahamiyatlidir.

An'anaviy xalq og’zaki kasbiy musiqa ijodi an'analarining yuzaga kelishi, davlar osha gullab yashnashi, badiiy tafakkur taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridan tortib, milliy-ma’naviy madaniyat rivojining turli davrlarida ham o’zining yuksak namunalari asosida nafaqat aholining ma’naviy-ruhiy madaniyatini tarbiyalashda, balki odob-axloqiy me’yorlarini tarbiyalashda asosiy vosita siftida ifodalananadi.

Musiqa va maqom san’atiga bo’lgan yuksak e’tibor O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan odilona siyosatda ustuvor kasb etmoqda. 2017 yil 17-noyabrdra “Maqom san’atini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” qabul qilingan farmoni barcha ommaviy axborot vositalari va internet sahifalari orqali keng jamoatchilikka e’lon qilindi. Shundan so’ng Toshkentda Respublika maqom markazi, shuningdek barcha viloyat markazlarida maqom ansamblari tashkil qilindi. 2018-yil sentyabr oyida Shahrisabz shahrida “Xalqaro maqom san’ati anjumani” o’tkazildi. Anjumanga dunyoning 200 ga yaqin mamlakatlaridan olimlar, san’atkorlar tashrif buyurdi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” to’g’ ‘risida”gi farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’ ‘risida”gi PQ-2909- son Qarorlari, 2017 yil 17-noyabrdagi “O’zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’risida”gi PQ-3391-sonli qarori, 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasining



jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-sonli farmoniga asosan Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti tashkil etilishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar mamlakatimizda an'anaviy o'zbek xalq og'zaki kasbiy musiqa ijrochiligini yanada rivojlantirish, yosh xonanda va sozandalarni tayyorlashda ajdodlarimizdan qolgan milliy ijrochilik an'analariga tayanish va uni bardavomligini ta'minlash kabi masalalarda har qachongidan ko'ra, ko'proq mas'uliyat bilan yondashishimizni talab etadi.

Maqom san'alining gultoji bo'lgan "Shashmaqom" YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy-madaniy merosi sifatida e'tirof etilgani hamda uning Reprezentativ ro'yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig'idir.

Yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ularni musiqiy jihatdan ma'nан yetuk shaxs etib tarbiyalash doimiy ravishda kunning eng dolzarb va muhim masalalaridan hisoblanib kelgan. Yoshlarning o'z qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya berish, kelajakda shu sohani malakali kadri bo'lib yetishishlarida oilada ota-onaning, ta'lim muassasalarining pedagog o'qituvchilarning zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. O'sib kelayotgan yosh avlod, kelajak vorislarmiz hisoblangan yoshlар tarbiyasida har jihatdan ko'ra ehtiyojkorlik bilan yondashishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Ramazonova U.X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 1. – S. 496-501.

Saidaxmedov S. Xorazm maqomlarining talabalarga o'rgatish usullari. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 324-326

Ramazonova U.X. O'n ikki maqom tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Pedagogik MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal Maxsus son 6 (3), 169-170